


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70410101– Iqtisodiy nazariya magistratura  
mutaxassisligining***

**MALAKA TALABI**

**Toshkent-2024**



*Sh*

**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “14” 08 dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>8</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>	<b>9</b>
	<b>Kelishuv varag‘i.....</b>	<b>10</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70410101–Iqtisodiy nazariya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi 70410101 – Iqtisodiy nazariya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dastur (sillabus)larini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va o‘quv dastur (sillabus)larini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasalarining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

70410101 – Iqtisodiy nazariya – “Biznes va boshqaruv” ta‘lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, u barcha oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida, ilmiy tadqiqot markazlarida, loyihalash institutlarida, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, davlat boshqaruv idoralarida, turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, viloyat, shahar, tuman hokimiyatlarida, tashqi savdo korxonalarida, kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyatning vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari**

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlari; oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida



pedagogik faoliyat; Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar; davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari; ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog’liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari; turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish korxonalarining iqtisodiy faoliyati; aksiyadorlik jamiyatlari, xolding kompaniyalari, assotsatsiyalar, konsernlar, uyushmalarning iqtisodiyot bo’limlari; qo’shma korxonalar, xorijiy korxonalar, sug’urta va lizing kompaniyalari faoliyati; tashqi savdo hamda turli infratuzilmaviy korxonalarda iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va rivojlantirish; mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar, kichik korxonalarining iqtisodiyot bo’limi; ilmiy tadqiqot markazlari va loyihalash institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot ishlari, nazariy konsepsiya va ishlanmalar yaratish.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- moliyaviy-iqtisodiy faoliyat;
- hisob, tahlil va nazorat faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish faoliyati;
- konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o’z ichiga oladi.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70410101–Iqtisodiy nazariya mutaxassisligi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o’tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o’quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o’tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo’yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog’ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo’nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o’tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo’yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo’yicha pedagogik va o’quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv-metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

davlat, mahalliy hukumat va xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini xavfsiz boshqarish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o‘z faoliyatida foydalana olish;

Iqtisodiy nazariyaning miqdor va sifat me‘zonlari iqtisodiy tizim va obyektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;

Iqtisodiy nazariya sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqish;

O‘zbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makrodarajada sodir bo‘ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, iqtisodiyotga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash;

budjet tizimi va budjet parametrlari, budjetdan tashqari turli jamg‘armalarning shakllanishi hamda bajarilishini nazorat qilish, davlat va mahalliy resurslardan foydalanish borasida qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

moliya operasialari, moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish.

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiyot sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo‘yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;



shartnomalarni tuzish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni to‘plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish iqtisodiy xavfsizligini rejalashtirish va amalga oshirish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informasion va imitasion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

#### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

iqtisodiy faoliyat sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

iqtisodiy faoliyat sohasida mutaxassislikka mos bo‘lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo‘yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

mutaxassislikka mos mavzular bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

#### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o‘z faoliyatida me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila olishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqish, iqtisodiyot sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo‘lish.

me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

### 3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli ilmiy-tadqiqot va amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyot o‘tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	ZIQNAZ115	Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar	150	5	1
1.02	ILTM115	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.03	MFOM115	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	150	5	1
1.04	IIDS115	Ijtimoiy iqtisodiyot va davlat siyosati	150	5	1
1.05	EMPIQ125	Empirik iqtisodiyot	150	5	2
1.06	EKMET2125	Ekonometrika-2	150	5	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>2,3</b>
2.00		Tanlov fanlar	900	30	2,3
	<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Iqtisodchi (pedagog-tadqiqotchi)</b>			
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1200	40	1,2,3,4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (sillabusi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqobat, raqobatbardoshlik, sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya, tarkibiy o'zgarishlar, yangilanish va miqdoriy o'sib borishi, ishlab chiqarish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, xalqaro ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, aralash iqtisodiyot, iqtisodiy sikllar, iqtisodiy o'sish, ish haqi, agrar munosabatlar, ko'p ukladli iqtisodiyot, o'tish davri, ishlab chiqarish xarajatlari, mulkchilik munosabatlari, moliyaviy va real investitsiyalar, investitsion muhit, mehnat va ilmiy salohiyat, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, inson resurslarini boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika.


Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQUILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor  E.Z. Teshabayev

2024 yil " 1 " 06



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy Universiteti

Direktor  M. Boltabayev

2024 yil " 26 " 06

M.O.



Rektor  I. Madjidov

2024 yil " 19 " 06

M.O.



O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot  
va moliya vazirligi departament  
direktori

 A.A. Djalilov

2024 yil " 20 " 06

M.O.



"O'zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va  
muammolari" ilmiy tadqiqot markazi

Direktor  M. Kalonov

2024 yil " 19 " 06

M.O.



"O'zbek-Turk Test Markazi"  
qo'shma korxonasi  
Bosh direktor

 M. Xamzayev

2024 yil " 21 " 06

M.O.



"Lotos Gold" Qo'shma korxonasi  
Bosh direktori

 Y. Yuldashev

2024 yil " 20 " 06

M.O.

